

## “FIRDAVS UL-IQBOL’ ASARI TARIXIY ASAR SIFATIDA”

**Usmonov Javohir***Samarqand davlat universiteti magistranti**Ilmiy rahbar: I.Sulaymonov**SamDU professori, filologiya fanlari doktori*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Firdavs ul-Iqbol asarining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Asarning yaratilish tarixi, mualliflari, kompozitsion tuzilishi hamda Xiva xonligi tarixini o‘rganishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, asarda bayon etilgan siyosiy, ijtimoiy, madaniy va adabiy jarayonlarning tarixiy haqiqatni aks ettirishdagi o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Maqolada asarning tarixnavislik an‘analari bilan bog‘liqligi hamda ilmiy manba sifatidagi qimmatini haqida mulohazalar yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Firdavs ul-Iqbol, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Xiva xonligi, tarixiy manba, tarixnavislik, tarixiy-adabiy asar, Xorazm tarixi, ilmiy manba*

**Аннотация** *В данной статье анализируется значение произведения «Фирдавс ул-Икбол» как исторического источника. Освещаются история создания произведения, его авторы, композиционная структура, а также роль в изучении истории Хивинского ханства. Кроме того, раскрываются особенности отражения исторической действительности через политические, социальные, культурные и литературные процессы, изложенные в произведении. В статье также рассматривается связь произведения с традициями историографии и его научная ценность как исторического источника.*

**Ключевые слова:** *Фирдавс ул-Икбол, Мунис Хорезми, Огахи, Хивинское ханство, исторический источник, историография, историко-литературное произведение, история Хорезма, научный источник.*

**Abstract** *This article analyzes the significance of the work “Firdavs ul-Iqbol” as a historical source. The history of the creation of the work, its authors, compositional structure, and its role in the study of the history of the Khiva Khanate are highlighted. In addition, the article reveals the specific features of reflecting historical reality through the political, social, cultural, and literary processes described in the work. The paper also discusses the connection of the work with historiographical traditions and its value as a scientific historical source.*

**Keywords:** *Firdavs ul-Iqbol, Munis Khorezmi, Ogahi, Khiva Khanate, historical source, historiography, historical-literary work, history of Khorezm, scientific source.*

**Kirish.** O‘zbek tarixnavisligi taraqqiyotida XIX asr Xorazm adabiy-madaniy muhiti alohida o‘rin tutadi. Bu davrda yaratilgan tarixiy asarlar nafaqat siyosiy voqealarni yoritishi, balki ijtimoiy, madaniy va adabiy hayot haqida ham muhim ma’lumotlar berishi bilan ahamiyatlidir. Ana shunday nodir manbalardan biri “Firdavs ul-iqbol” asaridir. Mazkur asar Xiva xonligi tarixini o‘rganishda muhim yozma manbalardan biri sifatida tarixshunoslik ilmida alohida qadrlanadi. Asarning dastlabki qismi Munis Xorazmiy tomonidan yozilgan bo‘lib, keyinchalik Ogahiy tomonidan davom ettirilgan. Shu jihatdan ham asar ikki yirik tarixnavis ijodining mahsuli hisoblanadi. Unda Xorazm hududidagi siyosiy jarayonlar, hukmdorlar faoliyatiga oid qimmatli ma’lumotlar bayon etilgan. Asarda tarixiy voqealar bilan bir qatorda badiiy tasvir vositalarining ham qo‘llanishi uning ilmiy-badiiy qiymatini yanada oshiradi. “Firdavs ul-iqbol” asari o‘zining tarixiy haqqoniyligi, voqealarning izchil bayoni hamda mualliflarning kuzatuvchanligi bilan boshqa tarixiy manbalardan ajralib turadi. Ayniqsa, Xiva xonligining siyosiy hayoti, davlat boshqaruvi va madaniy muhiti haqidagi ma’lumotlar bugungi tarixshunoslik uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli mazkur asarni tarixiy manba sifatida tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan bir necha bosqichlarga bo‘linadi. Dastlabki bosqich XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda asar, asosan, tarixiy manba sifatida e’tirof etilib, sharqshunos olimlar tomonidan qo‘lyozma nusxalari aniqlangan, tavsiflangan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Xususan, rus va Yevropa sharqshunoslik maktabi vakillari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda asarning tarixiy faktlarni aks ettirishdagi ahamiyati alohida ta’kidlangan. Bu borada Yuri Bregel<sup>81</sup> V.V Bartold kabi olimlarning, o‘zbek olimlaridan Y. G‘ulomov va boshqalarning xizmatlari e’tiborga molik bo‘lib, ular asarning qo‘lyozma variantlarini o‘rganish, tizimlashtirish va ilmiy jamoatchilikka taqdim etishda muhim rol o‘ynagan. Asaening badiiy-estetik qiymatini xalqqa ochib berishda prof. N.Jabborovning ham xizmatlarini alohida e’tirof etishimiz kerak.

Muarrixlik san’ati O‘rta Osiyo hududida qadimdan davom etib kelgani tarixdan ma’lumdir. Xususan, Xorazm zaminida Abulg‘oziy Bahodirxon tomonidan muvaffaqiyatli boshlab berilgan tarixnavislik keyingi bosqichlarda yanada yuksak cho‘qqilarga chiqdi. XVIII asrning oxirgi choragi va XIX asr Xorazm tarixnavisligida alohida o‘rinni egallaydi. Chunki bu davrda atoqli tarixnavis olim va shoir, davlat arbobi, o‘zining butun faoliyati bilan Xorazmda madaniy yuksalishga homiylik qilgan Shermuhammad Munis ibn Amir Avazbiy mirob va uning jiyani Muhammad Rizo Ogahiy ibn Erniyozbeklar qalam tebratdilar va qator tarixiy hamda adabiy asarlar ijod etdilar.[4,7b ]

<sup>81</sup> Yuri Bregel. *Firdavs al-iqbal: History of Khorezm.* – Leiden: Brill, 1999.

“Firdavs ul-iqbol” asari o‘zbek tarixnavisligi tarixida muhim o‘rin egallagan yirik tarixiy-adabiy manbalardan biridir. Asar XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik vakillari Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan bo‘lib, unda Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy hayoti keng yoritilgan. Mazkur asar nafaqat tarixiy voqealarning oddiy bayoni, balki o‘z davrining tarixiy tafakkuri va adabiy-estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Asarning yozilishiga Xiva xoni Eltuzarxon tashabbus ko‘rsatgan bo‘lib, Munisga Xorazm tarixini yaratish vazifasini topshiradi. Natijada tarixiy voqealarni izchil yoritishga qaratilgan “Firdavs ul-iqbol” asari yuzaga keladi. Biroq Munisning vafoti tufayli asar tugallanmay qoladi va keyinchalik Ogahiy tomonidan davom ettiriladi. Shu sababli asarda ikki ijodkorning tarixnavislik uslubi va badiiy qarashlari uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Asarda qadimgi davrlardan to XIX asrning birinchi yarmigacha bo‘lgan tarixiy jarayonlar bayon etiladi. Xususan, Xiva xonligidagi hukmdorlar faoliyati, ichki va tashqi siyosiy munosabatlar, harbiy yurishlar hamda xalq hayoti bilan bog‘liq voqealar tasvirlangan. Bu ma‘lumotlar bugungi kunda Xorazm tarixini o‘rganishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. “Firdavs ul-iqbol”ning tarixiy manba sifatidagi ahamiyati, avvalo, undagi voqealarning davr ruhiga mos ravishda yoritilganida ko‘rinadi. Muallif ko‘plab tarixiy hodisalarning bevosita guvohi bo‘lganligi sababli asarda keltirilgan ma‘lumotlar tarixiy jihatdan ishonchliligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Xiva xonligi hukmdorlari faoliyati, davlat boshqaruvi tizimi va diplomatik aloqalar haqidagi ma‘lumotlar tarixshunoslik uchun qimmatli manba hisoblanadi. Asarda faqat siyosiy voqealargina emas, balki davrning madaniy va adabiy muhiti ham o‘z aksini topgan. Turli she‘riy parchalar, qasidalar, ruboiy va tarixiy baytlarning keltirilishi asarning badiiy qimmatini oshiradi. Bu esa “Firdavs ul-iqbol”ni sof tarixiy asar deya e‘tirof etibgina qolmay, tarixiy-adabiy manba sifatida baholash imkonini beradi. Muallif tarixiy voqealarni badiiy tasvir vositalari orqali yoritish bilan o‘quvchida kuchli estetik taassurot uyg‘otishga intiladi.

“Firdavs ul Iqbol” asarining muqadima qismi an‘anaviy Allohga hamd bilan boshlanadi. Xiva adabiy muhitidan tashqari Buxoro va Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodida ham ushbu an‘ana yetakchilik qilgan. Xorazm tarixnavislik maktabida ham bu an‘ana qo‘llanilgan. Xususan, Shemuhammad Munisning “Firdavsu-l-iqbol” asari muqaddimasida tamhid, munojot, na‘t va manqabatdan so‘ng maxsus 5 bobda Xorazm xonlari shajarasining Muhammad Rahimxon I davrigacha bo‘lgan bosqichi batafsil bayon etiladi. Lekin Ogahiyga kelib bu an‘ana ixchamlashadi. Muarrixning mustaqil holatda yaratgan 5 tarixiy asarini kuzatsak, an‘anaviy hamd, na‘t, manqabatdan so‘ng to‘g‘ridan to‘g‘ri asosiy maqsadga o‘tib ketiladi. Ya‘ni Munis boshlab bergan “Firdavsu-l-iqbol” asarida an‘anaviy yo‘ldan yurgan Ogahiy o‘z qalamiga mansub 5 ta asarda bu an‘anadan chekinganini ko‘rishimiz mumkin.[6, 24b]

“Firdavs ul-iqbol” asarining muqaddima qismi tarixiy voqealarni bayon etishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Asarda Odam Ato davridan Nuh alayhissalomgacha bo‘lgan voqealar qisqa va lo‘nda tarzda keltirilib, muallif asosiy e‘tiborni tafsilotlarga emas, balki tarixiy silsilaning uzviyligini ko‘rsatishga qaratadi. Jumladan, Qobil va Hobil haqidagi rivoyatda Odam Atoning farzandidan ayrilishi hamda Alloh taolo tomonidan Shis alayhissalomning ato etilgani zikr qilinadi, biroq voqealar tafsiloti keng yoritilmaydi. Bu holat muqaddimaning tarixiy kirish vazifasini bajarishini ko‘rsatadi. Asarning insoniyat yaratilishidan boshlanishi dastlab an‘anaviy tarixiy asarlardagi hamd va na‘t qismlarini eslatadi. Biroq keyingi bayonlardan ma‘lum bo‘ladiki, muallifning asosiy maqsadi Xiva xonlari tarixini insoniyat va turkiy xalqlar tarixining umumiy taraqqiyot jarayoni bilan bog‘liq holda ko‘rsatishdan iboratdir. Ayniqsa, Nuh alayhissalomning o‘g‘li Yofas va uning avlodlari haqidagi ma‘lumotlar asarning genealogik asosini tashkil etadi. Muqaddimaning “Yofasdin Qo‘ng‘irot urug‘ining zikrigacha” deb nomlangan bobida Yofas avlodlari, xususan Turk va uning zurriyotlari haqida ma‘lumotlar beriladi.[1,26b ] Turk obrazining adolatli, oqil va odobli shaxs sifatida tavsiflanishi turkiy xalqlarning tarixiy ildizlarini ulug‘lashga xizmat qiladi. Shuningdek, Turk avlodidan Alanjahongacha bo‘lgan davrning obod va farovon bo‘lgani, Alanjahon davrida esa diniy-axloqiy tanazzul yuz bergani haqidagi ma‘lumotlar tarixiy voqealarga ma‘naviy-badiiy baho berish an‘anasini aks ettiradi. Asarning keyingi boblariga ham e‘tibor qaratsak, Ogahiy shunchaki voqealarga taixchi sifatida emas, balki shoir sifatida, ijodkor sifatida yondashadi.

Xondamir ijodi bilan qiyoslanganda, Munis va Ogahiy tarixnavislik maktabining o‘ziga xos jihatlari yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Xondamirning tarixiy asarlarida davlat boshqaruvi, siyosiy tizim, hukmdor va amaldorlar faoliyatiga alohida e‘tibor qaratilgan. Muarrix voqealarni bayon qilish bilan bir qatorda, hukmdorlar faoliyatini tahlil qiladi, davlatning yuksalishi yoki tanazzulga yuz tutish sabablarini izohlashga intiladi. Ayniqsa, davlat boshqaruvida hukmdorning o‘rni, uning vazirlar va amaldorlar bilan munosabatlari, siyosiy qarorlarning mamlakat taraqqiyotiga ta’siri haqida muhim mulohazalar bildiradi. Xondamir nazarida podshoh davlatning markaziy tayanchi hisoblangan bo‘lsa-da, uning qudrati va muvaffaqiyati atrofidagi sadoqatli va bilimdon amaldorlar faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Munis va Ogahiy esa tarixiy voqealarni bayon etishda nafaqat siyosiy jarayonlarni, balki ularning badiiy-estetik talqiniga ham katta ahamiyat beradilar. “Firdavs ul-iqbol”da tarixiy hodisalar quruq xronologik ketma-ketlikda emas, balki badiiy tasvir vositalari yordamida yoritiladi. Mualliflar jang manzaralari, saroy hayoti, hukmdorlarning fazilatlarini hamda xalq turmushiga oid lavhalarni tasvirlashda she’riy parchalar, qasida, ruboiy va tarixiy baytlardan keng foydalanadilar. Natijada asar tarixiy ma‘lumotlarni yetkazish bilan birga o‘quvchida

estetik taassurot ham uyg‘otadi. Tarixnavislik metodlari nuqtai nazaridan ham ikki muallif o‘rtasida muayyan farqlar mavjud. Xondamir tarixiy voqealarning sabab va oqibatlarini tahlil qilishga moyil bo‘lsa, Munis va Ogahiy voqealarning izchil xronologik bayoniga ustuvorlik beradilar. Shunga qaramay, har ikkala tarixnavislik maktabida ham tarixiy haqiqatni imkon qadar aniq yoritish, hukmdorlar faoliyatiga baho berish va avlodlarga tarixiy xotirani yetkazish maqsadi ustuvor hisoblanadi. Bu jihat ularning asarlarini Sharq tarixnavislik an‘analarining muhim namunalariga aylantirgan. “Firdavs ul-iqbol”ning tarixnavislik an‘anasidagi o‘rni ayniqsa uning kompozitsion tuzilishi va tarixiy materialni bayon etish uslubida namoyon bo‘ladi. Asarning insoniyat yaratilishidan boshlanishi, turkiy xalqlarning genealogik tarixiga murojaat qilinishi va Xiva xonlari sulolasining shajaraviy asosda tasvirlanishi Sharq tarixnavisligining an‘anaviy tamoyillariga mos keladi. Biroq mualliflarning tarixiy voqealarga shaxsiy munosabat bildirishi, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishi va zamondosh voqealarning bevosita guvohi sifatida fikr yuritishi asarga individual uslub bag‘ishlagan. Shuningdek, Munis va Ogahiy tarixiy voqealarni yoritishda manbalar bilan ishlash madaniyatini ham namoyon etadilar. Ular o‘zlaridan oldingi tarixiy asarlardan foydalangan holda, zamondoshlari guvohliklari va shaxsiy kuzatishlarini ham asarga kiritganlar. Bu esa “Firdavs ul-iqbol”ning tarixiy ishonchlilik darajasini oshirib, uni XIX asr Xorazm tarixini o‘rganishdagi eng muhim manbalardan biriga aylantirgan.

Xulosa qilib aytganda, “Firdavs ul-iqbol” asari o‘zbek tarixnavisligi taraqqiyotida muhim bosqich hisoblanadi. Asarda tarixiy voqealar bayoni bilan bir qatorda badiiy-estetik tafakkur ham uyg‘unlashgan bo‘lib, bu holat uni boshqa ko‘plab tarixiy manbalardan ajratib turadi. Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan ushbu asar Sharq tarixnavisligining an‘anaviy tamoyillarini davom ettirgan holda, XIX asr Xorazm ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotining mukammal manzarasini yaratishga xizmat qilgan. Xondamir tarixiy tafakkurida kuzatiladigan davlat boshqaruvi va siyosiy tahlil elementlari bilan qiyoslanganda, “Firdavs ul-iqbol”da tarixiy voqealarning badiiy talqini, xronologik izchilligi va mualliflik kuzatuvlari ustuvorlik qilishi ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan asar nafaqat tarixiy manba, balki yuksak adabiy-estetik qimmatga ega bo‘lgan tarixiy-badiiy yodgorlik sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ham “Firdavs ul-iqbol” Xorazm tarixini, o‘zbek tarixnavislik an‘analarini hamda XIX asr adabiy muhitini o‘rganishda eng muhim va ishonchli manbalardan biri sifatida o‘z ilmiy qiymatini saqlab qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Firdavs ul-iqbol”. Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxo‘ja, S.Ro‘zimboyev, A.Ahmedov. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

2. Yuri Bregel. Firdaws al-iqbal: History of Khorezm. – Leiden: Brill, 1999.
3. Habib al-Siyar – Xondamir. Asarning turli forscha nashrlari.
4. Munis va Ogahiyning “Firdavs-Ul-Iqbol” asari yaratilish tarixi va uning ilmiy ahamiyati <https://phoenixpublication.net/index.php/TTI/article/view/10729/10567>
5. N. Jabborov “Firdavs ul-iqbol” – Ogahiyning badiiytarixiy nasrdagi ilk tajribasi. Oltin bitiglar 2021 №3
6. Ismailov Is’haqjon “Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlari poetikasi”. Dissertatsiya. Samarqand 2025